

YANGI XITOY SHE'RIYATIDA VATANPARVARLIK G'OYASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-363-369>

Ozodjon Mardiyevich Ochilov

TDSHU "Xitoyshunoslik" oliy maktabi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada 19-asr Xitoy she'riyatidagi o'zgarishlar, Vatanparvarlik she'riyat maktabining paydo bo'lishi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Ching sulolasi davridagi ijtimoiy va siyosiy inqirozlar, mustamlakachilik bosqinlari, yangi poetik yo'nalishlarning paydo bo'lishi, vatanparvarlik she'riyati, realizm va romantizmning adabiyotga ta'siri batafsil o'rganiladi. Vatanparvarlik she'riyat maktabi shoirlarning yangilik yaratish harakatlari va she'riyatning jamiyatdagi roli yoritiladi.

Tayanch so'z va iboralar: Hu Shi, Xitoy yangi she'riyati, baihua she'riyati, adabiyot islohotlari, G'arb va Sharq integratsiyasi, lingvistik va madaniy o'zgarishlar, baihua adabiyotining rivoji, adabiy nazariya, 20-asr Xitoy adabiyotshunoslari, adabiy tanqid.

Abstract: This article analyzes the changes and development of 19th-century Chinese poetry. It explores the social and political crises of the Ching dynasty period, colonial invasions, the emergence of new poetic movements, patriotic poetry, and the influence of realism and romanticism on literature. The efforts of poets to create innovative works and the role of poetry in society are examined.

Keywords: 19th-century Chinese poetry, Ching dynasty, patriotic poetry, realism, romanticism, social crisis, poetic movements, colonialism, literary innovations.

Ching sulolasining so'nggi davrlarida she'riy ijod jarayoni muhim bir hodisani namoyon qiladi, ya'ni adabiyot ko'p jihatdan ta'limotchilik va manbachilik nazariyalarining qat'iy cheklovlariga duch keldi. Bu esa she'r yaratishda shoirdan yuksak ilmiy yondashuv va katta mahorat talab qilinishiga olibkeldi, natijada adabiy yangilanish va hissiy ifodaning muhimligi e'tiborsiz qoldirildi. O'tmish ta'limotlariga cheksiz hurmat ko'rsatish va muqaddas manbalarni muntazam o'rganish zarur ekanligi haqidagi g'oyalarning keng tarqalishi adiblarni qadimgi kitoblar va hujjatlarga haddan tashqari ko'p murojaat qilishga undadi. Bu esa asarlarda shakliy go'zallik hamda texnik mahoratning kuchayishiga, mazmun va hissiy ifodaning susayishiga olib kelfi. Weng Fanggan (翁方纲)ning "Tekstura

nazariyasi” (《肌理说》) asari shu kabi yondashuvlarning bir ko‘rinishi bo‘lib, asarda she‘riy ijodda falsafiy-axloqiy tushunchalar, qadimgi adabiyotlarga tayanish hamda so‘z tartibi va bezaklari hamohangligiga e‘tibor qaratish zarurligi ta‘kidlanadi. Davrning shu kabi ustuvor mafkurasi she‘riyatda ilmiylik ruhi kuchayib, his-tuyg‘ular ifodasining susayishiga, shaklga e‘tibor qaratilib novatorlikning yo‘qolishiga sabab bo‘ldi.

Yuqoridagi kabi yondashuvlar Jia Ching davridan (1796-1820) boshlab she‘riyat sahnasida ustunlik qila boshladi va bevosita Cheng Size, He Shachi kabi shoirlarning qarashlariga ta’sir ko‘rsatib, qadimgi manbalar tadqiqi va amaliyotiga asoslangan “Ilm ahli she‘riy maktabi” (“学人诗派”)ning shakllanishiga olib keldi. Bu maktab o‘zining asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi uchun qadimgi manbalar tafsiri va tarixiy voqealar bayonini she‘riyat bilan uyg‘unlashtirishni asos qilib oldi. Maktab yo‘nalishi qaysidir ma’noda ilmiy qimmatga ega bo‘lsa-da, badiiy ijod erkinligi va ijodkorligini cheklab qo‘ydi. Mazkur jarayonlarda Yuan Mei kabi shaxslar yangi she‘riyat yaratish yo‘llarini izlashga harakat qilgan bo‘lsalar ham she‘riyat dunyosi allaqachon o‘tmish ilmlariga asoslangan, yangiliklarni inkor qiluvchi muhit ta’siriga tushib bo‘lgan edi.

Yuz yillik davr mobaynida, garchi oz sonli shoirlar “farovonlik pardasi” ortida qolgan qashshoq dehqonlar hasratini hamda kuchli bosim ostida qolgan ziyolilar dardini she‘rga solgan bo‘lsalar-da, tanazzulga uchragan she‘riyatni o‘nglashga qodir emas edilar. Agar Chianlong davrida she‘riyatning tanazzuli faqat jimjimador va hashamdorlik bilan belgilangan bo‘lsa, undan keyingi davr she‘riyatida narsa-buyumlarni madh etish, javob she‘rlar yozish, kimningdir ko‘nglini ko‘tarish uchun unga atab qasidalar bitish, an’anaviy uslublarga sodiqlikni namoyon qilish, shakliy jihatdan nozik baytlar yaratish kabi tendensiyalar avjiga chiqdi. Bu tendensiyalar opiumning noqonuniy savdosi, korrupsiyaning keng yoyilishi, jamiyatdagi axloqiy tanazzul va ketma-ket yuz berayotgan dehqonlar qo‘zg‘olonlari keltirib chiqargan jiddiy ijtimoiy inqiroz bilan tobora ziddiyatlashib bordi. Shoirlar ochiqdan-ochiq qadimiylilikni ulug‘lash va buni eng ustuvor maqsad sifatida bilish, hatto qadimgi allomalarning hikmatlarini, muqaddas sanalgan kitoblardagi oyatlarni qayta-qayta nazmga solish, formalizm va an’anaviylikka intilish haddan tashqari kuchayib, she‘riyatning jiddiy regresiyasiga va butun she‘riyat tizimining zaiflashuviga olib keldi.

Xitoy tarixida 19-asr o‘rtalaridan boshlab keskin o‘zgarishlar davri boshlandi. U an’anaviylik hamda zamonaviylik o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajargan eng muhim davrdir. Bir tomondan Daoguang zamonidan (1821-1850) boshlab mustamlakachilik bosqinlari va dehqonlar qo‘zg‘olonining doimiy bosimi ostida bir

vaqtlar katta qudratga ega Ching sulolasi sekin-asta jamiyatda ortib borayotgan ijtimoiy tartibsizliklar ichida susayib, eskirib qolgan hukmronlik tizimi davom ettirib bo'lmaydigan holatga kelib qoldi, oqibat tashqi kuchlar yordamida mavjudligini saqlab qolishga kirishib ketgan bo'lsa, boshqa tomondan esa, 1839 yil Xitoyda afyunga qarshi qaratilgan "Humen voqeasi" va birinchi bor Britaniyaga qarshi 1841 yil 29 mayda sanyuanli xalqi qo'zg'oloni xitoyliklarning imperiyalizmga va feodal tuzumga qarshi yangi kurashning alanga olishiga sabab bo'ldi. Bu ikki tarixiy harakat hukmron doiraning "abadiy imperiya" orzusiga qaqshatqich zarba berdi, yopiq eski davrni yakunlab, jamiyatda chuqur o'zgarishlar yuzaga kelishi uchun zamin yaratdi.[2, 13-14]

Umuman olganda har bir davr unda yashayotgan odamlar zimmasiga ko'plab umumiy vazifalar va masalalar yuklaydi, shu sababdan bo'lsa kerak har bir davrning ijodkorlari orasida bir xillikka moyil tendensiyalar paydo bo'ladi. Hegel falsafasiga ko'ra, har bir irodali shaxs maqsadlariga intilish bilan band, lekin shu bilan bir vaqtda yanada ulkan maqsadlar uchun vosita vazifasini ham o'tashadi. Ehtimol ular buyuk maqsadlar yo'lidagi o'zlarining qanday rol o'ynayotganligini anglamasliklari mumkin, biroq bilmagan holda katta jarayonlarga o'z hissalarini qo'shib boradilar. Shuning uchun ma'lum bir davrga oid adabiyot qanchalik rivojlangan bo'lmasin, qanchalik turli-tuman bo'lmasin g'oya, mazmun va shakl jihatdan umumiy asoslarga ega bo'ladi, bu esa o'sha davr adabiyotining asosiy oqimini tashkil qiladi.[1,498] Aynan shu davrda va aynan shu asosga ko'ra Gong Zizhen, Wei Yuan, Zhang Jiliang, Zhang Weiping kabi vatanparvar ziyolilar yangi uslublarni yaratishga intilish orqali Ching sulolasining o'rtalarida boshlab she'riyat sahnasida hukmron mavqei yanada mustahkamlashgan an'anaviy qoidalarga dadil qarshi borishdi, vatanparvarlik hissiga to'lgan she'rlar yoza boshlashdi, bu esa keyingi xitoy she'riyatiga uzoq va katta ta'sir ko'rsatgan vatanparvarlik she'riy maktabining paydo bo'lishiga imkon yaratdi.

Ming va Ching davrlaridagi siyosiy-mafkuraviy jarayonlarda asosiy kurash neokonfutsizm targ'iboti bilan shug'ullanuvchi va unga qarshi turuvchi guruhlar o'rtasida kechdi, bu kurash ayniqsa she'riyat sohasida kuchli tarzda aks etdi. Ming davrining oxirgi yillarida "Yetti shoir" (七子) deb ataluvchi shoirlar guruhidan Ching sulolasida ijod qilgan Wang Shizhen, Shen Dechian, Weng Fanggang kabi adiblargacha o'z davrlaridagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarga javoban neokonfutsiychilik ta'limoti g'oyalari asosida adabiyotda yangi yo'nalishlarni rivojlantirish uchun kuchli harakat qilishdi. Ular ilgari surgan poetik nazariyaga ko'ra she'riyat avvalambor qadimgi donishmandlarning axloq prinsiplari, osmonga, ya'ni xudolarga hurmat ko'rsatish, konfutsiychilik ta'limoti targ'ibotidan iborat

bo'lishi kerak edi. "She'riyat tariqat sifatida ta'limotlar orqali his-tuyg'ularni tartibga solish, yaxshilik qilishga undash, tabiat bilan uyg'unlashish, ruhlarni his qilish, ta'lim, davlat boshqaruvi, hukmdor bilan muloqot qilish uchun muhim"[3, 48], deb sanaldi. Biroq, dastlab Gong'an va Jingling guruhi shoirlari, keyinchalik Yuan Mei boshchiligidagi "Tabiat va ruhiyat" (性灵派) oqimii vakillari adabiyotda, xususan she'riyatda ratsionalistik g'oyalarga qarshi chiqib, adabiyotga inson ichki dunyosi, shaxsiy his-tuyg'ulari va ijodiy ruhini ifoda etish vositasi sifatida qarashdi. Ular adabiyotda formalizm va an'anaviy mavzulardan ko'ra, shoir yoki yozuvchining shaxsiy tajribasi va tabiatidagi go'zallikni samimiy tasvirlashga ko'proq e'tibor berishdi. Shu sababdan ham Ming va Ching davrlarida ta'limotlarga asoslangan ratsional yoki ruhiyat va inson tabiatiga asoslangan tuyg'ular she'riyati ijod salmog'ini o'lchovchi asosiy mezon bo'lib keldi. 19 asr o'rtalaridan rivojlana boshlagan Vatanparvarlik maktabi shoirlari aynan "Tabiat va ruhiyat" oqimi g'oyalariga asoslangan holda she'riyat uchun his-tuyg'ularning muhimligi va zaruriyatini ta'kidlashdi. Vatanparvarlik she'riyat maktabi bu oqim g'oyalarini yanada kuchaytirishga, bir qadar yangilashga ham muvaffaq bo'lganligi kuzatiladi. Masalan, "Tabiat va ruhiyat" oqimi she'riyati ko'pincha shaxsiy hayot tajribasi va mansabda yuksalish yoki pasayish hissiyotlarini kuylash bilan cheklangan bo'lsa, vatanparvarlik maktabi jamiyatlardagi haqiqiy hayot tajribasiga va zamonaviy o'zgarishlarga bo'lgan his-tuyg'ularni ifodalashni birlamchi maqsadga aylantirganligiga guvoh bo'lamiz. Bu o'z o'rnida ularni she'riyat nazariyasini yangilashga undadi, shu tariqa his-tuyg'u va zamonaviy dunyoda kechayotgan keng ko'lamli ishlarni muhokama qilishni birlashtirgan yangi avlodning yorqin tarixiy ongi va davr ruhini aks ettiruvchi yo'lga qadam qo'yishdi hamda amaldagi an'anaviy she'riyat nazariyasi tomonidan o'rnatilgan chegaralar sekin-astalik bilan yorib o'tila boshlandi.

Vatanparvarlik maktabi she'riyati o'zini asosan ikki yo'nalishda namoyon qildi: bir tomondan, Xitoyga qarshi agressiv hujumlarni amalga oshirgan bosqinchilarning shavqatsiz harakatlariga nisbatan g'azab, xitoy xalqining chet el bosqinchilariga qarshilik ko'rsatish harakatlarini qo'llab quvvatlash, imperiyaning chirkin hukmronligi va ta'magir amaldorlarning xatti-harakatlarini beayov fosh etish, mehnatkash xalqning achinarli hayotiga hamdardlik bildirish; ikkinchi tomondan, shaxs erkinligiga intilish, o'z-o'zini anglashni namoyon etish, xorijning ilg'or madaniyatini tanishtirish va unga faol intilish, kelajak uchun ideal lohiyalarni tasvirlash kabi mavzularni qamrab oldi. Vatanparvarlik she'riyatining mazkur ikki yo'nalishi shubhasiz o'sha davrda yuz berayotgan vatanparvar fuqorolarning imperializmga qarshi bosh ko'tara boshlaganligi va milliy uyg'onish zaruriyatining

paydo bo'lishi kabi bosh voqealar bilan hamohang edi, bu esa shubhasiz maktabning yirik jarayonlarda katta ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Vatanparvar shoirlar o'z ijodlari bilan Afyun urushlarini tarixini to'liq va jonli tarzda yoritib berishdi. Bir davrda va bir mavzu orqali Xitoyda sodir bo'lgan shunday katta voqea haqida yozilgan she'rlar ko'lami va teranligi jihatdan xitoy she'riyat tarixida kuzatilmagan hodisa edi.[2, 74] Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, vatanparvarlik mavzusidagi she'riyat xitoy an'anaviy she'riyatining ham ajralmas qismi bo'lib kelgan. Biroq bunday she'rlar asosan vatan sog'inchi, chegarachilar ruhini ko'tarish yoki hukmdorga sadoqat kabi motivlar ustiga qurilgan. Yangi paydo bo'lgan maktab she'riyati esa nafaqat tamagir amaldorlar ayovsiz fosh etilgan, balki feodal sulola hukmdorlari ham ularning tanqid nishoniga aylangan. Bundan tashqari ular bosqinchilarga qarshi kurashish va taslim bo'lmaslikdan kelib chiqqan holda feodal davlat boshqaruvining chirkinligini fosh qilishga, feodal hukmron guruh hamda eng yuqori mansabdorlarning vatan va xalq manfaatlarini sotib yuborishga bo'layotgan harakatlarini keskin qoralashga o'tdilar, bu esa anti-agressiya va anti-feodal kayfiyatni o'zaro birlashishga olib keldi. Natijada shoirlar xalqning ongini bir qadar yangilashga, abadiy deb ta'kidlab kelingan imperiya va muqaddaslashtirilgan imperatorga nisbatan qarashlarni o'zgartirishga, oddiy xalq doimiy ravisda manipulyatsiya qurboni bo'lib kelganligiga ishonitirishga qisman bo'lsada muvaffaq bo'lishdi. Bu shubhasiz xitoy adabiyoti tarixida ilk marta she'riyat va ulkan xalq manfaatlarining birlashuviga olib keldi.

Vatanparvar shoirlar o'z she'rlarida millat taqdiri va kelajagiga qattiq qayg'urishayotganini aniq aks ettira boshladilar. Ularning she'rlarida nafaqat millatning fojialariga va milliy inqirozga bo'lgan tashvishlarini ifoda etdilar, balki undanda muhimroq jihati, ular bu kabi muammolarga qanday qilib yechim topish, xalqni uyg'otish va shu orqali davlatni xavf-xatardan qutqarish haqida ham o'ylay boshladilar. Ular o'z fikr va hissiyotlarini turli usullar bilan ifoda etganligini kuzatish mumkin: Afyun urushi Xitoyga keltirgan chuqur falokatlarni, davlatning kelajagi va millatning taqdiriga bo'lgan chuqur tashvishlarni ifoda etdilar, shu bilan birga, shoir shaxsiyati va matonatli ruhini ham she'rlari orqali namoyon qildilar; ba'zi shoirlar G'arb davlatlarining ilg'or texnologiyalari, siyosiy tuzilishi va madaniy yutuqlariga qiziqish bildirib, bu ma'lumotlarni she'rlar orqali tanishtirishga harakat qildilar, bu esa vatandoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, islohot va ochiqlik zarurligini tushunishga yordam berish maqsadida edi; faqatgina hozirgi voqealarni aks ettirish va zamonaviy muammolarni tanqid qilish bilan cheklanib qolmay, bu shoirlar kelajakka umid bilan qarab, o'zlarining ideal jamiyat tasavvurlarini chizib, odamlarni bu maqsadlar uchun kurashishga ilhomlantirdilar. Vatanparvarlik she'riyati maktabi vakillari nafaqat milliy inqirozga bo'lgan chuqur

tashvishlarini va shaxsiy achinish hissini ifoda etdilar, balki yangi ma'rifatparvarlik g'oyasini, ya'ni G'arbning ilg'or fan va madaniyatini o'rganish, ichki islohotlar va xalqning uyg'onishi orqali Xitoyning zamonaviy yo'lini topish zarurligini ham yetkazdilar. Bu fikrlar keyingi yuz yillikda Xitoyning zamonaviy jarayoniga chuqur ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi.

Vatanparvarlik maktabi shoirlari ijodini an'anaviy she'riyat bilan solishtirganda bir farqni ko'rish mumkin: ularning she'riyatida yangi obvrazlar va ifoda uslublari qo'llanila boshlandi. An'anaviy she'riyatda, ayniqsa Tang va Song va undan keyingi davrlarda obrazlarni yaratish orqali maqsadni to'liq ifoda etish konsepsiyasidan foydalanib kelingan. Misol uchun, bir shoir tabiat manzarasini tasvirlayotganda, faqat tashqi ko'rinishlarni emas, balki shu manzara orqali o'zining his-tuyg'ulari, falsafiy fikrlari yoki ijtimoiy-siyosiy mulohazalarini ham ifoda etishi mumkin bo'lib, bu ularning tabiat, tarix, yoki shaxsiy his-tuyg'ulari orqali umumiy haqiqatlarni yetakazishga urinishni anglatadi. Bunda she'riy obrazlar, metaforalar aniq va an'anaviy ma'nolarni o'z ichiga olgan, shu tufayli ko'p hollarda she'riyat muayyan qat'iy qoliplarga rioya qilib kelgan. Biroq vatanparvarlik maktabining yondoshuvi boshqacha bo'ldi. Ular o'zlarining she'rlarida yanada shaxsiy va abstrakt ifodalarni qidirishdi, bu esa o'z navbatida ijod namunalarida yangi va yangilangan obrazlarning yaratilishiga olib keldi. Ular masalan, tabiat manzaralarini emas, balki milliy istiqlool, xalq erkinligi va adolat kabilarni asosiy mavzu sifatida tanlashni ma'qul ko'rishdi. Bu yangi mavzular maktab she'riyatida yangi obrazlar va metaforalar yaratishni talab qildi, chunki an'anaviy she'riy obrazlar bu yangi mavzularni to'liq ifoda etish uchun yetarli emas edi. Ular shuningdek, she'riyatda shaxsiy his-tuyg'ular va fikrlarni erkinroq ifoda etishga ko'proq e'tibor qaratishdi. An'anaviy estetik chegaralardan chetga chiqib, o'zlarining ichki dunyosi, shaxsiy tuyg'ulari va siyosiy qarashlarini tog'ridan-to'g'ri va ochiqchasiga ifoda etishga harakat qilishdi. Bu esa, she'riyatda shakl va mazmunning yangi muvozanatini yaratishni talab qildi. Umuman olganda vatanparvar shoirlarning yondashuvi she'riyatda yangi estetik mezonlarni o'rnatdi va xitoy she'riyatining rivojlanishida yangi bosqichni boshladi. Ular she'riyatni faqat go'zallikni kuylash vositasi sifatida emas, balki shaxsiy va ijtimoiy ifodaning kuchli vositasi sifatida qabul qilishdi.

Shakl jihatdan Vatanparvar shoirlar she'riyatida ko'plab o'zgarishlar kuzatiladi. Masalan, vazn va qofiyaga haddan ortiq e'tibor qaratmaslik, she'r misralarining soni va ularning ixtiyoriy tartibi, she'r shakllarining erkin tanlanishi, o'zgartirilishi va hokazolar. Bu o'zgarishlar shakliy jihatdan xitoy she'riyatining an'anaviy qoidalariga zid bo'lib, ikki ming yildan ortiq vaqt davomida ilk marta yuz berayotgan edi.

Xulosa qilib aytganda, 19-asr Xitoy she'riyati jamiyatdagi keskinlik, tashqi

tahdidlar va ichki inqirozlar natijasida jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Shoirilar va adiblar yangi uslublar yaratish orqali adabiyotni rivojlantirishga hissa qo'shdilar. Vatanparvarlik she'riyati va yangi poetik yo'nalishlar xitoy she'riyatining zamonaviy yo'nalishlarini belgilashda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, she'riyat jamiyatdagi muammolarni aks ettirish va ularga yechim topishga qaratilgan kuchli vositaga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Г.В.Ф.Гегель: Лекции по истории философии. Наука, 2000.- 480 с.
- [2] 李金涛: 艰难的突围; 中国近代诗歌转型论. -北京: 中国文联出版社, 2002, 第 13 页.
- [3] 沈德潜: 《说诗碎语》, 何文焕辑《历代诗话选》, 中华书局, 1980 年版.
- [4] 梁启超: 《饮冰室合集·第五册·文集之四十五(下)·诗》, 北京·中华书局, 1988 年版第 1 版
- [5] 钱理群、温儒敏、吴福辉: 《中国现代文学三十年》, 北京大学出版社, 1998 年
- [6] 黄遵宪: 《人境庐诗草·自序》, 《人境庐诗草笺注》, 钱仲联笺注, 上海·上海古籍出版社, 1981 年 6 月第 1 版.